

**MATEMATIKA FANIDAN TO'GARAK MASHG'ULOTLARNI
TASHKIL ETISH.**

Shukurov Xursan Gadoyevich, Norova Intizor Haqberdiyevna
Matematika fani o'qituvchilari, BuxMTI akademik litseyi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktablarda matematika fani darslarida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish, o'quvchilarning darslarida og'zaki hisoblashlarga doir usullarni rivojlantirish haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: og'zaki hisoblash, yozma hisoblash, arifmetik amallar, tenglama, masala.

Ta'lim samaradorligini oshirishda o'quvchining fanga qiziqishini tasavvur qila olish qobiliyatini kengaytirish fikrlash qobiliyatini o'stirish asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu omillarni shakllantirishda matematika fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishni o'rni beqiyosdir. Matematika murakkab fan, shuningdek, bu fandan ta'lim samaradorligi pastroq. O'quvchi fanning murakkabligidan zerikadi va ularning qiziqishlari pasayadi. Natijada o'zlashtirish past ko'rsatgich beradi. Arifmetik misollarni yechilishini o'rganishdan avval o'quvchilar ongiga uning ma'nosini, mazmunini yetkazish joiz. Bu ish predmetlarning turli xil to'plamlari bilan amaliy ishlar bajarish asosida o'tkaziladi. O'quvchilarni qo'shish va ayirish amallarining ma'nosi bilan tanishtirish ikki to'plam elementlarini birlashtirishga doir va berilgan to'plamdan uning qismlarini ajratish kabi amaliy munosabatlar orqali amalga oshiriladi. Qo'shish amali sonlarni ko'paytirish amallari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ko'paytirish uning komponentlari bilan natijalari orasidagi bog'lanishlarni o'rganish o'z navbatida bo'lish amalini o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarning og'zaki hisoblash malakalari turli xil mashqlarni bajarishlari jarayonida rivojlanadi. Sinfdan tashqari ishlarning eng asosiy vazifalardan biri, o'quvchining ana shu istaklarini qondirish, ularning matematikaga qiziqishlarini mustahkamlash va takomillashtirishdan iborat. Matematika to'garagida o'rganiladigan materiallarning mohiyatini va hajmini chegaralab qo'yish qiyin. To'garak mashg'ulotlarini o'tish vaqtida sofizm, fokuslardan foydalanish o'quvchi qiziqishlarini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Og'zaki hisoblash malakalarini tekshirish niyatida sinfning hamma o'quvchilari bilan misol va masalalar yechishda qo'llaniladi.

O'qituvchi misolni aytadi, o'quvchilar og'zaki yechib, daftaridagi taalluqli raqam to'g'risiga faqat javoblarini yozib qo'yadilar. Bunday topshiriqni har bir darsda 7–10 minut davomida o'tkazish maqsadga muvofiq. Natijalar: Matematika fanidan sinfdan tashqari ishlar deyilganda o'quvchilarning matematik bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish maqsadida tashkil qilingan darsdan tashqari, qatnashish ixtiyoriy

bo'lgan mashg'ulotlarni, ya'ni matematika dasturining o'rganish majburiy bo'lgan qismiga kiritilmagan nazariy materiallarni, amaliy ishlarni o'rganish va dasturning materiallarini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida o'tkaziladigan mashg'ulotlar tushuniladi. O'quvchilarni fanga qiziqishi, dastlab dars jarayonini tashkil etishga bog'liqdir. Shu bilan birga, yaxshi tashkil etilgan sinfdan tashqari tadbirlar yordamida ham o'quvchilarning matematikaga qiziqishlarini ancha orttirish mumkin. Matematika faniga qiziquvchi o'quvchilarga matematika darsida olgan bilimlari kamlik qiladi. Ular matematikaga oid ko'proq bilim olishni, matematikaning turmushda qanday qo'llanilishini bilishni, qiziqarli va murakkab masalalarni ko'proq yechishni, matematika tarixiga doir materiallar bilan tanishishni, fanning yangi yutuqlaridan xabardor bo'lib turishni xohlaydilar. Muhokama: Matematika to'garagi sinfda o'tkaziladigan darsdan mazmun jihatdan emas, o'tkazish usuli bilan ham farq qiladi. Mashg'ulotlar: ma'ruza, murakkab masalalar yechish, turli xil musobaqalar tashkil qilish bilan qiziqarli bo'ladi. Matematik o'yinlar o'quvchi fikrlash qobiliyatini va diqqatini o'stiradi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda matematika fanidan devoriy gazeta tayyorlash ham o'quvchini fanga qiziqishini oshirishga yordam beradi. Ma'lum mavzu, bo'lim yoki matematikaga tegishli qiziqarli savollar bo'yicha og'zaki yoki yozma ravishda matematik viktorinalar tashkil etish bilan birga o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda, ularning matematik bilimlarini kengaytirib matematik adabiyotlar ustida mustaqil ishlash va ulardan kerakli masalani ajrata olishga o'rgatishda muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, arifmetik amallarni o'rganishdagi masalalardan biri og'zaki va yozma hisoblash usullarini ongli o'zlashtirish, hisoblash malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liqdir. Og'zaki hisoblash usullari ham, yozma hisoblash usullari ham amallar xossalari va ulardan kelib chiqadigan natijalarni amallar komponentlari bilan natijalari orasidagi bog'lanishlarni bilganlikka asoslanadi. Ammo og'zaki va yozma hisoblash usullarining farq qiluvchi xossalari ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алихонов С. Математика ўқитиш методикаси.- Тошкент-2011.-303 б.
2. Bikbayeva N.U, R.I.Sidelnikova, G.A.Adambekova. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent. —"O'qituvchi" 2003.
3. A.Nurmetov, I.Qodirov Matematikadan sinfdan tashqari va fakultativ mashg'ulotlar. –T: O'qituvchi, 2000.
4. M.Ahadova O'rta Osiyoning mashhur matematiklari. –T: O'qituvchi, 2003.